

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 134 (923), 2023-yil 8-iyul, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



TARAQQIYOT YO‘LI

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA

O‘zbekistonning huquqiy davlat maqomini mustahkamlaydi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani zamonaviy davlatchiligimizning poydevoriga qiyoslash mumkin. Chunki unda mustaqillik yillarida milliy davlatchilik borasida erishilgan ulkan tajriba, bundan tashqari, bugungi kunda jamiyat va davlat boshqaruvining oldida turgan o‘tkir va dolzarb masalalar, dunyoda saqlanib qolayotgan g‘oyat murakkab geosiyosiy jarayonlar avj olgan sharoitda “inson — jamiyat — davlat” o‘rtasidagi munosabatlarning puxta o‘ylangan strategiyasi aks etgan. Boshqacha aytganda, yangilangan Konstitutsiya ham davlatchilik, ham inson huquqlari borasida boshlangan demokratik islohotlarda ortga qaytmaligimizning o‘ziga xos isboti, desak bo‘ladi.

Davomi 3-betda



2023 9-IYUL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

“JIMLIK KUNI” NIMA UCHUN KERAK?

Joriy yil 9-iyul kuni bo‘lib o‘tadigan muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi davlatimiz va xalqimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. Bunda xalqimiz o‘zi tanlagan nomzodga ovoz beradi.

O‘tgan kunlarda Prezidentlikka nomzodlar tomonidan faol tashviqot tadbirlari o‘tkazilganiga guvoh bo‘ldik. Saylov kodeksiga ko‘ra, saylovoldi tashviqoti Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Prezidentlikka nomzodlarni ro‘yxatga olish uchun belgilan-

gan oxirgi kunning ertasidan e‘tiboran boshlanadi va ovoz berishga bir kun qolganida tugaydi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida bunday tashviqotga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davomi 2-betda



ISLOHOT ODIMLARI

MAQSAD — AHOLINI ROZI QILISH

Toshkent viloyati aholisining turmush farovonligini yanada yaxshilash, bandligini ta‘minlash va daromadini oshirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Bunday sa‘y-harakatlar natijasida turli ijtimoiy yo‘nalishlar va tadbirkorlik, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda belgilangan yaxshi ko‘rsatkichlarga erishilyapti.

Davomi 2-betda



TAHLIL VA TAQQOS



ASOSIY KAPITALGA O‘ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYA uzoq vaqt barqaror foyda kelishi kafolati

Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanish darajasi ishlab chiqarishning nafaqat miqdoriy oshishi, balki sifati hamda raqobatbardoshligi bilan ham belgilanadi. Barcha tarmoqlar barqaror taraqqiyotini ta‘minlashning asosiy usullaridan biri investitsiyalarni jalb qilishdir.

Davomi 4-betda



ZAMON BILAN HAMNAFAS

FAN — TA‘LIM — ISHLAB CHIQARISHNING UZVIY ALOQADORLIGI qanday imkoniyatlarni ishga solishga asos bo‘ladi?

Butun insoniyat fan — ta‘lim va ishlab chiqarishning amaliy natijalaridan bahramand bo‘lib kelmoqda. Zotan, taraqqiyot ushbu tizimlarning uzviy aloqadorligiga bog‘liq. Mamlakatimizda ham texnoparklar, robototexnika va mexatronika, IT texnologiyalar, muqobil energetika hamda biotexnologiya innovatsion loyihalar, startaplar jadal rivojlanayotir.

Davomi 5-betda



SARHISOB

YERGA SOCHILGAN URUG‘ el-yurtga qut-baraka bo‘lib qaytdi



2-betga qarang.



NUQTAYI NAZAR

DALA CHETIDA ekilgan ekin

fermerga daromad, ro‘zg‘orga qut keltiradi

Xalqimiz asrlar osha yerning har bir qarichidan unumli va oqilona foydalanishga harakat qilgan. Bobodehqonlarimizga doim yer va suv eng ulug‘ ne‘mat sanalgan. Hozir ham yurtdoshlarimiz uchun bu ikki ne‘matning qadr-qimmatini osha oshdiki, aslo pasaymadi. Chunki keyingi yillarda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi global masala sifatida keng quloq yozayotgani, iqlim o‘zgarishi va haroratning me‘yorida ortiq isib borishi qurg‘oqchilik hamda cho‘llanish jarayonining tezlashishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa sayyoramizdagi yana millionlab insonlar ocharchilik va suvsizlik muammosiga giriftor bo‘lishidan darak beradi.

Davomi 4-betda





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



ISLOHOT ODIMLARI

MAQSAD — AHOLINI ROZI QILISH

**Behzod QOBULOV,**
Toshkent viloyati hokimining
matbuot kotibi — axborot
siyosati masalalari bo'yicha
maslahatchisi

Boshlanishi 1-betda

Mahallalar
infratuzilmasida o'sish

Uzoqqa bormaylik. Prezidentning 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yil-larda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, hududlarni obod qilish, qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etishga alohida e'tibor qaratildi. O'tgan davr mobaynida joylarda ishlar jadal boshlandi.

Viloyat bo'yicha 957 ta obyektda turli darajadagi ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ular orasida 329 ta ichki yo'llar (398,1 milliard so'm), 381 ta ichimlik suv va oqova suv ta'minoti (530,9 milliard so'm), 88 ta elektr ta'minoti (25,1 milliard so'm), 2 ta gaz ta'minoti (0,3 milliard so'm), 5 ta umumta'lim maktabi (1,7 milliard so'm), 8 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti (7,2 milliard so'm), 12 ta sport obyekti (4 milliard so'm) va 132 ta boshqa loyihalar (88,9 milliard so'm) bor.

Xususan, Yangiyo'l tumanidagi "Qir-sadok" mahalla fuqarolar yig'inida 3,1 kilometr ga yangi quvurlar tortilib, 160 dan ortiq xonadon ichimlik suv bilan ta'minlandi. 220 dan ortiq xonadonning ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi. Bu kabi sa'y-harakatlar tumandagi 30 ta mahallada amalga oshirilib, buning uchun 38,9 milliard so'm sarflanadi. Boshqa tuman-shaharlarda ham bu kabi misollar ko'p.

Muhimi, hududlarni obod qilish, qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish

borasidagi vazifalar samarali tashkil etilgan. Bu esa aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratishga zamin bo'lmoqda.

Aholi daromadini
oshirayotgan
ishbilarmonlik muhiti

Ma'lumki, yaqinda O'zbekiston Prezidenti raisligida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda yangi bosqichga o'tish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida hududlardagi muhim masalalarga to'xtalib o'tilgan edi. Xususan, joylardagi tadbirkorlar bilan manfaatli hamkorlik qo'llab-quvvatlash, tumanda, mahallada bandlik masalasini hal qilish uchun imkoniyatlar yanada ko'payishi mumkinligi ta'kidlandi.

Tahlillarga ko'ra, oxirgi 2 yilda Toshkent viloyati bo'yicha 516 ming 693 fuqaro bandligi ta'minlandi, 41 ming 508 ta tadbirkorlik subyekti 53 ming 960 taga yetdi. Natijada 39 ming 300 ta oila kambag'allikdan chiqarildi.



Bu yil esa qabul qilingan dastur bo'yicha 480 ming nafar aholi bandligini ta'minlash rejalashtirilgan. Shundan birinchi chorakning o'zida 116,7 ming aholi ishga joylashtirildi. Aslida, bu o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Xususan, hozirgacha viloyatda faoliyat yuritayotgan 235 tadbirkor tomonidan kambag'al oilalarning 7 ming 86 nafar vakili ishga joylashtirildi. Ayniqsa, bu jarayonda Yangiyo'l, O'rta Chirchiq va Quyi Chirchiq tumanlaridagi xususiy sektor vakillari tashabbus ko'rsatdi.

Hududlarda viloyat hokimligi va tegishli boshqarmalar mutaxassislari ishtirokida tadbirkorlar bilan uchrashuvlarda aholi bandligini ta'minlash uchun barcha cho-

ralarni ko'rish vazifasi belgilab olindi. Unga ko'ra, 1 ming 274 tadbirkor hamkorlikda 64 ming 655 nafar fuqaro bandligini ta'minlaydi. Aholi vakillari dastlab, "amaliy monomarkaz"larda o'qitilib, so'ng ularga ish beriladi. Xususan, Bo'ka tumandagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quritish, qadoqlash va eksport qiluvchi "TNA Agro Invest" MCHJning bulg'or qalampirini yetishtirish uchun ko'chatxonasi yo'q. Korxona hozirgacha ko'chatlarini vodiy viloyatlaridan olib keladi. Bu esa mahsulot tannarxiga ta'sir qilmoqda.

Korxonaga tuman hududidan yer maydoni ajratildi. Shu bilan birga, aholi tomonidan qalampir yetishtirish usulida bulg'or qalampirini yetishtirib, mahsulotni sotib olish yo'lga qo'yildi. Bu orqali 1 ming 500 dan ziyod aholi daromadga ega bo'ladi. Mazkur korxona yangi tizim asosida tumanning Bunyodkor, Jo'rabad, Qo'ldoshtepa, Ramadan, Kiyikchi, Qulduroq mahallalaridagi 225 nafar kambag'al oila a'zolarini o'qitib, ishga qabul qiladi.

Dehqon uchun
har bir kun g'animat

Kuzgi hosilning kafolatini bugun qilingan mehnat belgilaydi. Bu yil ham Toshkent viloyati tumanlarida o'rib olingan g'alla maydonining 9,5 ming gektariga sabzavot, 15 ming gektariga kartoshka, 753 gektariga poliz, 35,8 ming gektariga dukkakli, 15 ming gektariga sholi va 24 ming gektarga ozuqa ekinlari ekiladi. Bu jarayon nazoratga olingan bo'lib, shu maqsadda 290 ta ekish otryadi shakllantirildi. Ularga 529 ta qishloq xo'jaligi texnikasi va 670 nafar hokim yordamchisi birkirildi.



Takroriy maydonlarning 14 ming gektari "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turgan 45 ming nafar ishsiz fuqaroga, jumladan, 14 ming yoshlarga dehqonchilik qilish uchun ajratib berilyapti.

Hozirgacha 35 ming ishsiz fuqaroga g'alladan bo'shagan 10 ming gektar yer maydonlari fermer va klasterlar tomonidan ajratib berildi. Bu esa yil yakunida aholining kafolati daromad olishiga zamin yaratadi. Takroriy ekin ekib, mahsulot yetishtirgan har bir xonadon mavsumda o'rtacha 22 million so'm daromad qiladi. Viloyat bo'yicha 13 ming xonadonda jami 5 ming gektarda takroriy ekin ekish hisobiga umumiy hisobda 110 milliard so'm daromad olinishi kutilmoqda.

Ijtimoiy ehtiyojmand aholiga takroriy ekin ekish va parvarishlash davrida amaliy yordam ko'rsatish maqsadida jami 274 ta klaster, ilg'or fermerlar va tayyorlov korxonalarini birkirildi. Ushbu tizim asosida ishsiz aholiga birkirtilgan mas'ulalar yer maydonlarini ekishga tayyorlash, ekish va agrotexnik tadbirlarni o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatib, zarur moddiy-texnik resurslar yetkazib bermoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, viloyatda takroriy ekin ekiladigan maydonlarda jami 1,7 milliard tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Olinadigan hosilning 290 ming tonnasi qayta ishlashga, 147 ming tonnasi eksportga, 42 ming tonnasi kelgusi yil hosili uchun urug'lik xazinasiga, 219 ming tonnasi ichki iste'molga hamda viloyat ichki iste'molidan ortgan 135 ming tonna mahsulot Toshkent shahar yarmarkalariga yo'naltiriladi.

Kelgusi yil bahor oylarida viloyat bozorlarida narx-navo barqarorligini saqlash maqsadida takroriy ekin hisobidan qish-bahor mavsumi uchun jami 30 ming tonna, jumladan, 18 ming tonna kartoshka, 8 ming tonna sabzi, 4 ming tonna sholi xazira qilinadi hamda grafik asosida oyma-oy ichki bozorga chiqariladi.

Buning uchun 37 ta eksportyor-tadbirkor, 47 ta qayta ishlash va 174 ta tayyorlov korxonasi, 19 ta tomorqa xizmati korxonasi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga birkirilib, yetishtiriladigan hosilni kafolatli xarid qilish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Umuman, hududda aholini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, zamonaviy xizmat turlarini ko'rsatish, yangi ish o'rinlari yaratish evaziga oilalarning dasturxoniga baraka, hayotiga mazmun kiradi.



9-IYUL KUNI BO'LIB O'TADIGAN PREZIDENT SAYLOVIDA 8-IYUL SOAT 00:00 DAN "JIMLIK KUNI" BOSHLANADI.
SAYLOV KUNI VA OVOZ BERISH BOSHLANISHIDAN BIR KUN OLDIN JAMOATCHILIK FIKRI SO'ROVLARI NATIJALARINI, SAYLOV NATIJALARI PROGNOZLARINI, O'TKAZILAYOTGAN SAYLOV BILAN BOG'LIQ BOSHQA TADQIQOTLARNI E'OLON QILISH, JUMLADAN, AXBOROT TARMOQLARIGA, INTERNET TARMOG'IGA JOYLASHTIRISH TAQIQLANADI.

"JIMLIK KUNI"
NIMA UCHUN KERAK?**Xushvaqt HAYITOV,**
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi
akademiyasi kafedra mudiri,
yuridik fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Demak, 9-iyul kuni bo'lib o'tadigan Prezident saylovida 8-iyul soat 00:00 dan "jimlik kuni" boshlanadi.

Shu bilan birga, saylov kuni va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni e'lon qilish, jumladan, axborot tarmoqlariga, internet tarmog'iga joylashtirish taqiqlanadi.

Saylov kuni va undan bir kun oldin "jimlik kuni" belgilanishiga nima zarurat mavjud? Bunga bir qancha sabablar bor. Birinchidan, bu saylovchilarga saylovoldi tashviqotisiz o'z tanlovini amalga oshirish imkonini beradi. Ya'ni bunda har bir fuqaro mustaqil ravishda o'zi munosib deb bilgan nomzodni aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Ikkinchidan, fuqarolarga saylov kuni ularning erkin tanlovini amalga oshirishga xalaqit beradigan salbiy axborot ta'sirining oldi olinadi.

Shu kabi tajriba xorijiy mamlakatlarda ham mavjud bo'lib, bu xalqaro saylov standartlariga to'la mos keladi. Xususan, saylov kuni va undan bir kun oldin saylovoldi tashviqoti yuritilishiga taqiq Fransiya, Italiya, Ispaniya, Vengriya, Ozarbayjon, Singapur kabi davlatlar qonunchiligida mavjud.

Shunday qilib, qonunchiligimizda saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmaydigan kun talabi belgilangani saylovchilarning o'z huquqini erkin amalga oshirish imkoniyatini kuchaytirib, saylovning qonuniy, adolatli o'tishiga muhim kafolat bo'lib xizmat qiladi.



SARHISOB

Jizzax viloyati g'allakorlari katta mehnat g'alabasiga erishdilar. Ular 233 ming tonnadan ziyod sara don yetishtirib, davlat xazirasi, birja savdosiga chiqarish va urug'lik don jamg'arish borasidagi rejalarini oshirib bajarib, el oldida yuzlari yorug' bo'ldi.

Erishilgan bu zafar marrasi, albatta, yurtimizda kechayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ulkan ishlarning viloyat miqyosidagi yorqin natijasidir.

Viloyat g'allakorlarining kuzda yaxshi niyat bilan yerga sochgan urug'i el-yurtga qut-baraka bo'lib qaytdi. Xirmonlar donga to'ldi. Yaqin yillarda g'allachilikda bunday hosil yetishtirilmagandi. Yutuqning siri nimada? Uni bilish, o'rganish zarur. Kelgusida bu qo'l keladi-da. Ochig'i, yil hech qachon dehqonchilik uchun qulay kelmagan. Bu yil qishdagi anomal sovuq g'allakorlarga anchagina qiyinchilik tug'dirdi. Yaxshisi, usta dehqon-u rahbar-mutaxassislar fikrlariga bir quloq tutaylik.

— Har paykalning o'z egasi bor. Yer sohibi dalasiga qancha ko'p mineral va mahalliy o'g'it chiqarsa, shunga yarasha mukofot oladi. Ishning ko'zini biladigan bunday g'allakor fermerlar hududimizda ko'p, — deydi Zafarobod tumani Yo'ldosh Oxunboyev nomidagi suv iste'molchilari uyushmasi raisi Hamro Ismatov.



— Cho'l hududlarda qishda yoqqan qor anomal sovuqlarda maysalarni sovuq urishdan saqlab qoldi. Fermerlarimiz har bir agrotexnik tadbirni vaqtda, sifatli o'tkazdi. Natijada hosildorlik gektariga 90-100 sentnerni tashkil qildi, — deydi Do'st-

lik tumanidagi "Oq oltin" suv iste'molchilari uyushmasi hosiloti Nusrat Hasanov.

— Urug'chilikda hikmat ko'p, — deydi Paxtakor tumanidagi "Navroz" fermer xo'jaliklari hududiy uyushmasi raisi Anvar Qodirov. — Rejani viloyatimizda birinchi

bo'lib bajardik. Davlatga qo'shimcha 150 tonna don sotdik. Xomcho'larga qaraganda, daromadimiz ham chakki bo'lmaydi.

Ha, qaysi g'allakor bilan shubhatlashmang, joriy yil qo'lga kiritilgan

g'alabadan ko'ngli tog' ekaniga guvoh bo'lasiz. Ammo yutuqning o'zi kelmaydi. Bu aytishgagina oson. Rejadagi hosilni o'rib-yanchib olish uchun ne-ne mashaqqatlar boshdan kechirilmadi.

So'nggi yillarda fermerlarga berilayotgan imtiyozlar, fan-texnika yutuqlari hamda ilg'or texnologiyalarni joriy etish kabi omillar muvaffaqiyatlar garovi bo'ldi. Masalan, Paxtakor tumandagi "Anvar-A" hamda "Sher ulug' jahon" fermer xo'jaliklarida ham ilg'or texnologiyalardan unumli foydalanildi. Shu bois, joriy yilda mazkur xo'jaliklarda har gektar g'alla maydonidan o'rtacha 100-115 sentnerdan hosil yetishtirildi. Uning zamirida esa tinimsiz mehnat, samarali izlanishlar yotibdi. Bedor o'tgan tunlar, yelib-yugurishlar, sifatli agrotexnika samarasi bu.

Viloyat g'alla xirmoni tog'dek yuksaldi. G'allakorlar hozirgacha davlat xazirasiga 116 ming tonna, birja savdosi uchun 95 ming 550 tonna hamda urug'lik uchun 22 ming 369 tonna don jamg'ardi. Rejadan ortiqcha hosil fermerlar ixtiyorida qoldi. Ha, inson ishlab, peshona teri to'kib boyiyverssa, ko'ngli toza niyatlarga to'laveradi. Islohotning mohiyati ham shu — ishlagan boy bo'lyapti, shuning uchun u astoydil ter to'kyapti.

Rejani bajarish va yetishtirilgan hosilni o'z vaqtida nest-nobud qilmasdan yig'ishtirib olishda birinchi bo'lib zafar marrasiga yetib kelgan Paxtakor tumani g'allakorlari bo'ldi. Ular viloyat xirmoniga 37 ming 571 tonnadan ziyod sara don yetkazib berdi.

Viloyatda yerni ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, unga mehr bergan asl fer-

merlar ko'p. Ular xalqimiz dasturxonini to'kin qilishga bel bog'lagan. Bunday ilg'or fermerlar bu yilgi mavsumda ham alohida jonbozlik ko'rsatdi. Paxtakor tumandagi Akbar Eshmatov boshliq "Anvar-A" fermer xo'jaligi har gektar g'alla maydonidan o'rtacha 115 sentner, Mirzacho'l tumanidagi Shomansur Qonarov boshliq "Shomansur agro" fermer xo'jaligi a'zolari 111,1 sentnerdan xirmon uyib, eng yuqori hosildorlikka erishdi.

G'alla o'rimg-yig'imi mavsumida kombayn operatorlari asosiy og'irlikni o'z zimmlariga oldi. Ular samarali mehnat qilishi uchun yetarli shart-sharoit yaratildi. Viloyat dalalarida "Keys", "Klass", "Nyu Holland" rusumli 300 dan ziyod g'alla o'rish kombayni guruhlarga bo'linib, har biriga muayyan maydon berildi. Natijada barcha texnikaning bir joyda ishlashi, xizmat ko'rsatishning osonlashishi, xarajat kamayishi ta'minlandi.

"Do'stlik agropromtex" mas'uliyati cheklangan jamiyatining ilg'or kombaynchisi Zafar Jo'rayev nomi ko'pchilikka tanish. U ko'p yillardan buyon o'z agregatini mohirlik bilan boshqarib, paxta va g'alla xirmonlariga salmoqli hissa qo'shib kelyapti. Joriy yilda ham Zafar 450 gektar maydondagi g'allani o'rib-yanchib, pesh-qadamlikni qo'ldan bermadi.

Ayni paytda viloyat dalalarida qizg'in mehnat davom etmoqda. Hosildan bo'shagan maydonlar somondan tozalanib, peshma-pesh shudgor qilinayapti. O'rimg-yig'im barvaqt yakunlangan dalalarda takroriy ekinlar ekilib, parvarish ishlari boshlab yuborildi.

Abdushukur LAPASOV,
jurnalist



TARAQQIYOT YO‘LI

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA

O‘zbekistonning huquqiy davlat maqomini mustahkamlaydi



Bekzod NARIMOV,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Mazkur ulug'vor va insonparvar strategiyani belgilashda davlatning maqomi Konstitutsiyada aniq belgilanishi juda muhim. Davlat maqomi deganda, ko'z o'ngimizda davlat faoliyatining tashkil etilishi, uning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari, shuningdek, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi huquqiy va siyosiy institutlar majmui gavdalanadi. Boshqacha aytganda, davlat maqomini davlatning o'ziga xos "brandi", deyish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, davlatning siyosiy-huquqiy maqomi qanchalik barqaror va insonparvar bo'lsa, fuqarolarda ertangi kunga umid shunchalik yuqori bo'ladi, ularning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Agar davlatchilikning siyosiy-huquqiy maqomi mustahkam va barqaror bo'lmasa, bu siyosiy beqarorlikka, ijtimoiy nizolarga, iqtisodiy tanazzulga, fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishiga olib kelishi mumkin.

Konstitutsiyada belgilangan asosiy prinsiplarning o'ziga xos jihati shundaki, ular Konstitutsiyaning boshqa qoidalarini va qonun hujjatlari uchun birlamchi normativ asos vazifasini bajaradi. Ya'ni davlat suvereniteti bobida O'zbekistonning huquqiy, ijtimoiy maqomi berilishi normani ortiqcha gaplar bilan to'ldirish emas, balki mazkur xususiyatlar O'zbekistonning eng oliy maqsadlari ekanini anglatadi. Bundan tashqari, "Asosiy prinsiplar" bo'limida milliy davlatchilikning asosiy maqsadi belgilanishi davlatning mohiyatini ham ochib beradi.

Umuman olganda, Asosiy qonunimizning muhim jihatlari haqida so'z borganda, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda "huquqiy davlat" tushunchasi ilk bor o'rin olib, uning ta'rifini keltirilganini ta'kidlash joiz. Shuningdek, inson huquqlari kafolatlariga oid normalar ham 3 barobar ko'paytirildi. Bu, avvalo, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashda adolat va qonun ustuvor bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

“

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUSIYAMIZNING 55-MODDASIGA KO'RA, DAVLAT FUQAROLARNING HUQUQLARINI BUZSA, ULAR O'Z HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA ADOLATNI TA'MINLASH UCHUN SUDGA MUROJAAT QILISH HUQUQI MUSTAHKAMLANDI. SHUNINGDEK, SHAXSQA DAVLATNING HUQUQIY HIMOYAGA DOIR BARCHA ICHKI IMKONIYATLARDAN FOYDALANIB BO'LGANIDAN SO'NG, XALQARO ORGANLARGA MUROJAAT ETISH HUQUQI BERILGANI FUQARO O'Z HAQ-HUQUQINI XALQARO DARAJADA HIMOYA QILISH VA NIZOLASHAYOTGAN MASALASINI KONVENSIYA, XALQARO PAKT KABI XALQARO HUJJATLARDAN FOYDALANGAN HOLDA HAL QILISH IMKONIYATINI YARATADI.

Xo'sh, yangilangan Konstitutsiyamizga ko'ra, O'zbekistonning "huquqiy davlat" maqomi mohiyati nimada aks etadi?

Huquqiy davlat, bu — demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo'lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlat.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekistonning "huquqiy davlat" maqomi quyidagilarda aks etadi.

Birinchidan, tan olishimiz kerak, oldin fuqarolar kundalik hayotda Konstitutsiyada belgilangan normalarga murojaat qilgan holda, o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda qiyinchilik va ovoragarchiliklarga duch kelar edi. Masalan, sudning qarorisiz uy-joydan mahrum etilish holatlari fuqarolarni ko'p yillar qiynab keldi.

Shuningdek, fuqaro biror imtiyoz yoki

amal qilishi belgilanishi, fuqarolarga xalqaro organlarga murojaat etish huquqi berilishi konstitutsiyaviy normalarga rioya etish jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, mansabdorlar hayot qoidasi bo'lishi lozimligini anglatadi.

Ikkinchidan, oldin amaliyotda aksariyat hollarda davlat manfaatlariga ustunlik berish holatlariga guvoh bo'lganmiz. Shu sababli, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "Insonning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarida birinchi o'rinda turishi kerak", degan ezgu g'oya asosida inson huquq va erkinliklariga oid konstitutsiyaviy kafolatlar xalqaro standart va talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish or-

ganlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi, deb mustahkamlandi.

Ya'ni inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlarini ta'minlashni davlat o'z zimmasiga majburiyat sifatida olmas. Mazkur konstitutsiyaviy norma O'zbekiston demokratiya va inson huquqlarining umume'tirof etilgan g'oya va qadriyatlariga, shuningdek, inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Uchinchidan, ayrim hollarda, qonunchilik bilan fuqaroga bajarib bo'lmaydigan yoki bajarish qiyin bo'lgan majburiyatlar yuklatishiga guvoh bo'lganmiz. Aslida, qonunlar insonga hech qachon ortiqcha talab qo'ymasligi kerak. Qonun inson hayotini og'irlashtirishi emas, balki imkon qadar yengillik berishi lozim.

Shu sababli, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasiga ko'ra, **davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi belgilandi.**

Ushbu norma davlat bilan bo'lgan munosabatlarda inson huquqlarini to'laqonli ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi.

To'rtinchidan, zamon rivojlangan sari inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida qonunchilikdagi turli ziddiyat va noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin. Oldin shunday hollarda ko'pincha davlat organlari va mansabdor shaxslar davlat manfaatiga ustuvorlik berar edi. Shu bois, yangi konstitutsiyaviy norma orqali ziddiyatli va noaniqliklar yuzaga kelgan vaziyatlar bo'yicha huquqiy yechim berishda insonga yon bosiladigan, inson omiliga ustuvorlik beriladigan bo'ldi.

Ushbu tamoyil avval jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini,

tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish doirasida keng qo'llanib kelingan bo'lsa, endilikda ushbu tamoyilning Konstitutsiyada mustahkamlanishi inson ishtirok etishi mumkin bo'lgan har qanday ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga talqin etish imkonini berdi.

Insonning davlat organlari bilan o'zaro munosabatga kirishishda qonunchilikdagi barta'rif etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshilik va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishining Konstitutsiya darajasida belgilanishi, eng avvalo, inson qadrini ulug'lash bo'yicha ulug'vor g'oyaning amalga tatbiq etilishiga, hujjatlarda noaniqlik va qarama-qarshilik paydo bo'lganda davlat manfaatlari emas, inson manfaatlari ustunligi ta'minlanishiga olib keladi.

Beshinchidan, O'zbekistonda har bir shaxs huquqlarini shaxslar emas, qonun, odil sud himoya qila olishiga, har qanday bahsli masalaga adolatli yechim faqat odil sud tomonidan topilishiga erishish lozim. Shundaygina, sud tizimi boshqa sohalar rivojiga ham poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ya'ni chinakam mustaqil va qonun ustuvorligiga asoslangan sud tizimi boshqa barcha sohalar, xususan, ta'limda ham, sog'liqni saqlashda ham, biznesda ham tub o'zgarishlar amalga oshadi.

Shu nuqtayi nazardan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi, odamlarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq barcha harakatlarga faqat sud qarori asosida yo'l qo'yilishi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning "sukut saqlash" huquqi mustahkamlandi.

Bu yangiliklar tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan yangi konstitutsiyaviy obyektiv reallik hisoblanadi. Bu orqali sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'araz-

ligini ta'minlashni, jinoyat protsessida tortishuv prinsipini kuchaytirishni nazarda tutadigan hamda xalqaro e'tirof etilgan "Xabeas korpus" institutining qo'llanish ko'lamini yanada kengaytiradi.

Mazkur islohotning ahamiyatini quyidagi raqamlar ham ko'rsatib turibdi: 2022-yilda tergov organlaridan sudlarga kelib tushgan jami 24 mingdan ziyod iltimosnomadan 23,5 mingtasi qanoatlanirtilgan, 480 dan ortig'i esa rad etilgan, ya'ni 480 dan oshiq shaxsga nisbatan asossiz ravishda qamoq ehtiyot chorasi qo'llanishining oldi olingan.

Oltinchidan, mulkiy huquqlarni ishonchli himoya qilish tizimi har qanday davlat va jamiyat rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Mulkdor o'z mulki ishonchli himoya qilinishiga to'liq ishon-sagina ertangi kunga umidi bo'ladi, tadbirkor biznesini rivojlantirishga bor vujudi bilan harakat qiladi.

Insonga mulkdorlik hissidek motivatsiya beradigan kuch bo'lmasa kerak. Shuning uchun xususiy mulk daxlsizligi bo'yicha ko'plab tizimli muammolarga Konstitutsiya darajasida yechim berildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 65-moddasida xususiy mulk daxlsizligi mustahkamlanib, shuningdek, mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilandi.

Xususiy mulk daxlsizligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlashdan asosiy maqsad xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishni ishonchli ta'minlash hisoblanadi. Insonni mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etish mumkin emasligi bo'yicha konstitutsiyaviy norma yurtdoshlarimiz va chet ellik investorlarning mol-mulkidan mahrum etilishiga oid xavotirlariga chek qo'yadi.

Birgina mana shu modda bilan xalqimiz hayoti yanada farovonligining huquqiy asosi, ta'bir joiz bo'lsa, hayotbaxsh omili yaratildi, deyish mumkin. Boisi, chet ellik investor biror mamlakatga sarmoya kiritish uchun, avvalo, shu davlat qonunchiligini, biznes muhit kafolatlarini, xususan, konstitutsiyaviy baza mustahkamlangan yoki yo'qligini o'rganib chiqadi. U qachonki o'zi kiritgan sarmoyani hech bir to'siqlarsiz ishlatish, biznesini erkin yo'lga qo'yish va topgan foydasini ixtiyoriga ko'ra, sarflashga ishonch hosil qilsagina shu mamlakatga kirib keladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xususiy mulk daxlsizligining

konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari mustahkamlanishi yangi O'zbekistonda ana shunday ishonchli muhit yaratilishiga zamin bo'ldi.

Yettinchidan, Asosiy qonunimizning 154-moddasida O'zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat maqomi o'zgar-masligining belgilanishi Konstitutsiyada mustahkamlangan majburiyat va tamoyillar barqaror ekanligi va ularning so'zsiz bajarilishi davlat tomonidan kafolatlanishini anglatadi.

Unda belgilangan O'zbekistonning huquqiy davlat maqomi Konstitutsiyaning boshqa normalari uchun birlamchi normativ asos, qolaversa, O'zbekiston va xalqimizning eng oliy maqsadini anglatadi. Bunda Konstitutsiya ustunligining asosi faqat Konstitutsiya bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, O'zbekistonning huquqiy davlat maqomi qayta ko'rib chiqilishi mumkin emasligiga oid qat'iy norma belgilandi.

Mazkur norma davlat o'z manfaatlari yoki jamiyatdagi alohida guruhlar manfaatlari uchun emas, balki o'z fuqarolari manfaati uchun ishlashi kerakligini bildiradi.

O'zbekistonning huquqiy davlat maqomi bevosita jamiyatning demokratik rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda ko'p millatli O'zbekistonning yagona xalqi irodasi hisoblanadi. Ya'ni sivilizatsiya jarayonining zamonaviy bosqichi uchun umumiy bo'lgan obyektiv qonuniyatlarga, shu jumladan, demokratiya, qonun ustuvorligi, inson va fuqaro huquqlari ta'minlanishi O'zbekiston yagona xalqining manfaatlari va qadriyatlariga mos holda amalga oshiriladi.

Davlatning huquqiy davlat sifatida o'zgar-mas maqomi inson huquq va erkinliklari kafolati himoya qilinishiga ishonch beradi. Boshqacha aytganda, davlat o'z fuqarolarining huquqlarini himoya qilsa va hurmat bilan munosabatda bo'lsagina odamlar o'zini xavfsiz va himoyalangan his qilishi mumkin.

Umuman, O'zbekistonning huquqiy davlat maqomi demokratik institutlar va tamoyillarning mustahkamlanishiga, odamlarning hayot sifati yaxshilanishiga, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar fuqarolarni jazolovchi yondashuvdan inson huquqlarini hurmat qiluvchi va himoya qiluvchi yondashuvga o'zgartirishga, mamlakatimizning "Huquq ustuvorligi indeksi", "Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi" kabi xalqaro reytinglarda o'rni oshishiga xizmat qiladi.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



TAHLIL VA TAQQOS

ASOSIY KAPITALGA O‘ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYA uzoq vaqt barqaror foyda kelishi kafolati



Muzaffar JAMOLOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi
boshqarma boshlig‘i

Boshlanishi 1-betda

Asosiy kapitalga investitsiyalar, bu — foydani oshirish maqsadida asosiy vositalarni sotib olish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, qurish hamda boshqa sa'y-harakatlar uchun qo'shimcha xarajatlarni evaziga korxona aktivlari va balans qiymatining oshishi hisoblanadi. Ushbu jarayon korxonalarining qo'shimcha mablag'larni investitsiyalash orqali o'rta va uzoq muddatli istiqbolida ishlab chiqarishni oshirish, undan keladigan foydani ko'paytirishga qaratiladi. An'anaviy tamoyilga ko'ra, asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalarning tez muddatda qaytishini kutmaslik kerak, ammo ular uzoq vaqt davomida barqaror foyda kelishining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

2018-2022-yillardagi ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borganini ko'rishimiz mumkin. Agar 2018-yilda mazkur ko'rsatkich 124 trillion 231,3 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillar davomida uning o'sish hajmi 145 trillion 626,2 milliard so'mga oshgan. Ularning minimal qiymati 2018-yilda kuzatilgan va indikatorning maksimal qiymati 2022-yilda 269 trillion 857,5 milliard so'mga teng bo'lgan. Bu investitsiyalar faolligini tavsiflaydi. Ularning o'rtacha qiymati 207 trillion 952,7 milliard so'mni tashkil qilgan.

2023-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 56,6 trillion so'm o'zlashtirilgan bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizga o'sganini ifoda etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab

chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, tarmoq va sohalarida amaldaqi texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarning to'g'ri va samarali amalga oshirilishi bilan uyg'unlashsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bu, o'z navbatida, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratish bilan ham uzviy bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sarmoyalar hajmi o'sishining aksariyat qismi 2021-2022-yillarda Investitsiya dasturiga kiritilgan yirik loyihalar hisobiga to'g'ri kelayotgani kuzatiladi. Xususan, tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, umumiy quvvati 900 megavatt dan kam bo'lmagan navbatdagi ikkita bug-gaz turbinasini qurish bilan Talimarjon IESni kengaytirish, "Pop — Qo'qon — Andijon" uchastkasini elektrlashtirgan holda, Angren — Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini barpo etish, yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Talgo-250" rusumli yo'lovchi 2 ta elektr poyezdi hamda 4 ta vagon xarid qilish, lokomotiv parkini yangilash, "Boing-787-8" samolyotlarini sotib olish va hokazo.

Bir hudud misolida amalga oshirilgan loyihalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Samarqand xalqaro aeroportining yangi terminali, Imom Buxoriy majmuasi hamda Samarqand turistik markazidagi mehmonxonalar, xalqaro kongress xoli, "Boqiy shahar" majmuasi turli xalqaro anjumanlar o'tkazish, xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilishda beqiyos o'rin tutayotganini ko'rish mumkin.

2022-yilda mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 269 trillion 857,5 milliard so'm investitsiya o'zlashtirilib, bu avvalgi yilga nisbatan 100,9 foizni tashkil qildi.

Bunda markazlashgan manbalar hisobidan jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi 15,4 foizga yoki 41 trillion 784,3 milliard so'mga teng bo'lsa, uning 84,6 foizi markazlashmagan moli-

yalashtirish manbalari hisobiga to'g'ri keldi. Bu 2021-yilga nisbatan 3,8 foizga ko'payishi barobarida, jami kiritilgan sarmoyalarning 40,9 foizi korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgani bilan e'tiborga molikdir.

2023-yil yanvar-mart oylarida jami investitsiyalar hajmida markazlashgan manbalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga nisbatan investitsiyalar ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 foizni yoki 5,9 trillion so'mni tashkil etdi. Markazlashmagan manbalar hisobidan 50,7 trillion so'm yoki jami investitsiyalarning 99,2 foizi o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 foiz punktga kamaydi.

2022-yilning o'zida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 15 trillion 0,37 milliard so'm investitsiya o'zlashtirilib, 2021-yilga nisbatan 74,9 foizni tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi esa, 5,6 foiz darajasida qayd etildi va yirik hajmdagi investitsion loyihalarga yo'llandi. A-380 "G'uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu" avtomobil yo'lining 964-1204 kilometr qismini rekonstruksiya qilish, Andijon, Chirchiq, Buxoro, Samarqand va Toshkent (TS-8) shaharlarida markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimini ta'mirlash va energiya samaradorligini oshirish, elektr energetika tarmog'i salohiyatini rivojlantirish ana shunday loyihalar sirasiga kiradi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 trillion 482,7 milliard so'm va jami investitsiyalardagi ulushi 0,9 foizga teng bo'ldi. Shuningdek, mazkur jamg'arma hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 2021-yilga nisbatan 73,5 foizni tashkil etdi.

Davlat darajasida ham, alohida hududlar miqyosida ham investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish mamlakatda, O'zbekistondagi subyektlar, sanoat korxonalari va tashkilotlarida iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'tgan yili asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha

eng yuqori ko'rsatkich va o'sish sur'atlari korxona hamda tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, 2021-yilga nisbatan 110,6 foizga o'sdi. Eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning 52,1 foiziga to'g'ri keldi. Bu borada Toshkent (39,3 foiz) va Navoiy viloyatlari (30,7 foiz) hisssasi ham yuqori.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiyalar, kreditlar hisobidan hayotga tatbiq etilayotgan loyihalar ko'lami ham ortib boryapti. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi 2022-yilda 22,3 foizni tashkil etgani buning amaliy tasdig'idir. Aholi mablag'lari

(Moliyalashtirish manbalari bo'yicha 2022-yilda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar)



hisobidan esa, 27 trillion 296 milliard so'm o'zlashtirildi. Bu mablag'lar asosan, uy-joylar qurilishiga yo'naltirilgan.

Shu o'rinda qayd etish joiz, mamlakatimizdagi qulay biznes muhiti samarasida so'nggi yillarda chet el korxonalari 5 mingtadan 16 mingtaga yetdi. Har bir tuman va shaharga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi. Eksport qiluvchi korxonalar soni besh yilda 4 ming 500 tadan 7 ming 200 tagacha ko'paydi. Xorijga yo'llanayotgan mahsulot turlari ham 1 ming 500 tadan qariyb 3 mingtagacha oshib, geografiasini 164 mamlakatni tashkil etdi. Tayyor mahsulot eksporti 2 barobarga, ularning tovarlar eksportidagi ulushi 50 foizdan 65 foizga oshdi. Joriy yilda qariyb 11 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilgan. Hududlarda 23 milliard dollarlik 12 mingta yangi loyiha, shu jumladan, 3 mingdan ziyod sanoat loyihalarini ishga tushirilishi belgilangan.

Iqtisodiyotning o'sishi va uni modernizatsiya qilishning yuqori sur'atlarini

ta'minlash faqat viloyat hududida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga sarmoyalar yo'naltirilgan taqdirda samarasi yanada katta bo'ladi. Shu jihatdan joriy yilning dastlabki choragi tahlil etilganida, hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Farg'ona viloyatida (132,3 foiz) kuzatildi. Ushbu natijani 1500 megavatt quvvatga ega yangi elektr stansiyasi va 220 megavatt quvvatga ega gaz pistonli elektr stansiyasini qurish kabi yirik loyihalarga investitsiyalarni o'zlashtirish bilan izohlash mumkin. Samarqand viloyatida ham bu boradagi ishlar ko'lami katta. Shu bois, o'sish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130,7 foizni tashkil qildi. Bu hududda turistik markaz, quvvati 100 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi, Samarqand kimyo majmuasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirildi.

Viloyat iqtisodiyotiga zamonaviy sharoitlarda investitsiyalarni jalb etish

ni mintaqada investitsiya jozibadorligini oshirish va investitsiya xatarini kamaytirishga qaratilgan faol ishlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Hududda investitsiyalarni boshqarishning yangi, noston-dart usul va vositalarini izlash hududiy hokimiyat organlarining tijorat sharoitida faoliyat yurituvchi zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Globallashuv natijasida mintaqalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning to'laqqoni ishtirokchisiga aylanadi. Shu bilan birga, ular savdo bozorlari, investitsiyalar, byudjet va ma'muriy resurslar uchun bir-biri bilan qattiq raqobatlashadi. Har bir hudud o'zining geografik joylashuvi, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi, mehnat resurslari, foydali qazilma konlari mavjudligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Ushbu omillarni hisobga olish hududiy hokimiyat organlariga mintaqalardagi iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishtirish shakllantirish imkonini beradi.

Investitsion strategiyani amalga oshirishda uning samaradorligini yuksaltirish uchun bir qancha vazifalarni hal qilishga e'tibor qaratilish lozim. Xususan, hududning tasdiqlangan rivojlanish strategiyasiga muvofiq, investitsiya ehtiyojlari va ustuvor yo'nalishtirishni aniqlash, shuningdek, hududda investitsiyaviy jozibador obyektlarni rivojlantirishga ko'maklashish va erkinlik yaratish lozim. Qolaversa, hududlardagi korxonalarga investitsiyalarni jalb qilishga tayyorlashda hokimiyat organlari tomonidan amaliy yordam ko'rsatish, to'g'ri tushunchalar berib borilishini ta'minlash kerak. Hududlar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, mamlakatga strategik investorlarni jalb qilish masalasini atroflicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Investitsiya muhitini nafaqat tashqi manbalar hisobidan rivojlantirishga, balki mintaqal aholisining moliyaviy resurslarini investitsiya aylanmasiga jalb qilishga ham e'tibor qaratish lozim. Xorijiy va mahalliy investorlar risklarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqaligina investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin.



NUQTAYI NAZAR



Abdug'afvor JO'RAYEV,
Termiz agrotekhnologiyalar
va innovatsion rivojlanish
instituti rektori vazifasini
bajaruvchi, professor

Boshlanishi 1-betda

E'tiborli jihati, bu muammolar mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti. Shu bois, qishloq xo'jaligi tizimini isloh qilish, mavjud muammolarni hisobga olgan holda, agrar sohaga yondashuvni tubdan o'zgartirishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Yurtimiz yalpi ichki mahsulotida agrar sohaning ulushi yuqorilgini hisobga olib, davlat darajasida katta loyihalar amalga oshirilmoqda. Fermer xo'jaligi va aholi tomorqasidan samarali foydalanish borasida ildam qadamlar tashlanayotir. Jumladan, ko'p yillardan buyon foydalanilayotgan paxta va g'alla

DALA CHETIDA ekulagan ekin fermerga daromad, ro'zg'orga qut keltiradi

maydonlari qisqartirilib, bozor mexanizmlari asosida serdaromad mahsulotlar yetishtirishga urg'u berilyapti. Bir so'z bilan aytganda, odamlarning yerga, suvga munosabati tubdan o'zgarmoqda. Dalalarni aylansangiz, mirishkor dehqonlarimiz shu paytgacha foydalanilmay kelgan yerga ishlov berib, turli sabzavot va poliz ekinlari yetishtirayotganini ko'rasiz. Bu esa bozorlarimizda dehqonchilik mahsulotlari narxining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilyapti.

Barakali hosil olishni niyat qilgan dehqonlarimiz mahalliy navlardan unumli foydalanish, yangidan-yangi serhosil navlarini yaratish borasida tinimsiz izlanmoqda. Ularning mehnati natijasida yurtimizda "Xalq seleksiyasi" maktabi yaratildi. Mamlakatimizning deyarli barcha hududida intensiv bog' va tokzorlar barpo etilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash mexanizmi takomillashtirilayotganiga ham guvohmiz. Buning samarasida nafaqat bozorlarimiz meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlari bilan to'ldirilyapti, balki dunyoning qator mamlakatlarga eksport ham qilinmoqda. Asosiy, ehtiyoj darajasida, qishloq xo'jaligi maydonlarining joylashuviga ko'ra, ekinlar parvarishida fermer va dehqonlarimiz boy tajribaga ega

bo'lmoqda. Hatto dala chetiga ham sabzavot, poliz va boshqa turdagi ekinlarni ekish orqali fermer va dehqon xo'jaliklarining daromadi oshayotir.

Respublika Prezidentining joriy yil 12-apreldagi "Qishloq xo'jaligi korxonalari dala chetlaridagi yer maydonlarida mahsulot yetishtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori



bu borada muhim dasturulamali vazifasini o'tamoqda. Unga ko'ra, Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligiga dala chetiga ekish uchun talab etiladigan urug' va ko'chatlarni yetkazib berish va yetishtirilgan mahsulotlarni xarid qilish vazifasi yuklatildi. Jumladan, Termiz agrotekhnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining Paxtachilik kengashi qoshidagi "Aql markazi"da tadqiqot o'tkazayotgan mutaxassislari, professor-o'qituvchilari Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida g'o'zadan yuqori, sifatli hosil olishda fermer va klasterlarga yaqindan ko'mak bermoqda.

Viloyatning o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitida g'o'za parvarishlash uchun joylarda yer egalari, fermerlar bilan hamkorlikda ilmiy asoslangan agrotekhnologiyalarni qo'llash orqali yaxshi natijalarga erishilmoqda. Anomal issiq va suv taqchilligi sharoitida ayni dolzarb suv tejamlor usullar va ularning ba'zi elementlarini qo'llash, g'o'zani bargdan oziqlantirishda stimulyatorlar, tabiiy adsorbentlardan foydalanish hamda yangi navlarning o'ziga xos agrotekhnik tadbirlari amalga oshirilmoqda. Masalan, g'o'zani bargdan oziqlantirishda yangi tabiiy xomashyo "Bentonit gili" eritmasi bilan



suspenziya qilish amaliyoti fermer xo'jaliklari dalalarida sinab ko'rilmokda.

Institutimiz olimlari ayni paytda g'o'zadan yuqori hosil olishga oid bilim va ko'nikmalarini Sherobod tumani dehqonlari bilan o'rtoqlashmoqda. "Aql markazi" ishchi guruhi tarkibida 20 nafarga yaqin professor-o'qituvchi bo'lib, ular dehqon va fermerlarga doimiy ravishda tavsiyalar berib boradi. Shu bilan birga, mazkur guruh dehqon va fermer xo'jaliklari dalalarida hamda aholi tomorqalarida ham bo'lib, dala chetlarida sabzavot-poliz ekinlari, bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirishda ilmiy tavsiya va maslahatlarini bo'lishmoqda.

Mahalliy sharoitda yaxshi hosil berayotgan navlarni tahlil qilib, ularning super elita va elita urug'larini ko'paytirish, tuproq-iqlim sharoitiga mos, eng maqbul navlarni ekish, tuproq unumdorligi, kimyoviy va biologik xususiyatlarini ilmiy tahlil asosida o'rganib, o'g'itlarni qo'llash, g'o'za kasalliklari va hasharotlarga qarshi kurashish bo'yicha

samarador kimyoviy preparatlardan foydalanish, paxtachilikda suv tejamlor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilyapti.

2023-yil holatiga ko'ra, Surxondaryo viloyatining 14 ta tumanida 6 mingdan ziyod fermer xo'jaligi faoliyat yuritayotir. Ularning 4 ming 100 taga yaqini paxtachilik va g'alla-chilikka ixtisoslashgan, 1140 tasi esa boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanadi.

Surxondaryo boshqa viloyatlarga qaraganda qulay geografik joylashuvi, unumdor tuprog'i, suv zaxiralari bilan ajralib turadi. Oxirgi yillarda voha mirishkorlari nafaqat dehqonchilikning zamonaviy yutuqlarini amaliyotga tatbiq etmoqda, balki yetishtirilgan mahsulotlarni xorijga eksport qilish bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishmoqda. Ayniqsa, vohada gidroponika tarmog'i shiddat bilan rivojlanmoqda. Bu esa yangi kelajakda Surxondaryo agrar soha rivojlangan hududlardan biri bo'lishini ko'rsatuvchi muhim omildir.



ZAMON BILAN HAMNAFAS

FAN — TA'LIM — ISHLAB
CHIQUARISHNING UZVIY
ALOQADORLIGIqanday imkoniyatlarni ishga
solishga asos bo'ladi?**Feruza O'SAROVA,**
O'ZR FA huzuridagi
O'zbekistonning eng yangi
tarixi markazi
direktori v.b.,
siyosiy fanlar nomzodi,
dotsent

Boshlanishi 1-betda

Ayni paytda bu muhim uch tizimning yaqin o'tmishdagi holatini ko'rib beixtiyor "Oqqush, cho'rtanaliq va qisqich-baqa" ertagi yodga keladi. Nima uchun deysizmi? Chunki oldinlari o'ta tarqoq uch tizim, ya'ni fan — ta'lim — ishlab chiqarish xuddi shu ertakdagidek, samarasiz faoliyat yuritardi. Ayrim soha va tarmoq kadrlar diplomlari tokchalarida chang bosib yotar, tegishli sohaga o'qigan, ammo ishsiz mutaxassislar ham oz emasdi. Ilim-fan yutuqlari esa qog'ozda qolib ketar, ishlab chiqarish samaradorligi juda pasayib ketgandi.

Bu kamlik qilgandek, iqtisodiyotning haqiqiy lokomotivi bo'lgan injener, texnolog, agronom-mexanizator kabi zarur mutaxassislar kamayib, bu kabi sohalariga e'tibor yetarli darajada emasdi. Vaholanki, fan — ta'lim — ishlab chiqarish tizimlarining uzviy aloqadorligini ta'minlash har bir davlatning barqaror rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi...

Hozirda yurtimizda fan — ta'lim — ishlab chiqarishda uzviy halqa tiklanib, klaster shaklida faoliyat yuritishi uchun barcha zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim o'quv jarayonlariga ishlab chiqarish korxonalarining malakali va tajribali mutaxassislari ham jalb qilinayotir. O'z navbatida, oliy o'quv yurtlari talabalari, professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari ishlab chiqarish korxonalari-da amaliyot va stajirovka o'tashi tizimli yo'lga qo'yilmoqda.

Endi oliy o'quv yurtlari iqtisodiyotdagi zamonaviy korxonalarning rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqqan holda mutaxassislar tayyorlaydi. Talabalar olayotgan nazariy bilimni innovatsion hamkorlik asosida xuddi o'sha korxonalarda amaliy tomondan mustahkamlaydi. Ular shu davrda o'zlarini qiziqitirgan mavzuda innovatsion loyihalarni shakllantirish, yaratilgan ishlanmalarni korxonalar amaliyotiga joriy etish va tijoratlashtirish faoliyatini amalga o'rganadi. Masalan, joriy yilning o'zida "O'zbekneftgaz" jamiyatining 3 ta ishlab chiqarish korxonasi, 6 ta ta'lim tashkiloti va 4 ta ilmiy-tadqiqot

va malaka oshirish muassasasidan iborat neft va gaz sohasida ta'lim — ishlab chiqarish klasteri tashkil etildi. Oliy ta'lim muassasalarida dars berish uchun ishlab chiqarish korxonalarining malakali va tajribali 20 nafar mutaxassisi jalb qilindi, talabalar hamda professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlarning ishlab chiqarish korxonalari amaliyot va stajirovka o'tashi tashkil etildi. Shu qatorda iqtidorli talabalar uchun ishlab chiqarish korxonalari stipendiyalari joriy qilindi. Bu yuqorida aytilgan uch tizimning uyg'unlikda ishlashiga oid ayrim natijalar, xolos.

"O'zbekneftgaz" AJ tomonidan ishlab chiqarish korxonalarining 24 xodimga bakalavriat va 6 nafariga magistraturada o'qish uchun tavsiyanoma berilgan. Ahamiyatli, o'quv-kontrakt to'lovli ishlab chiqarish korxonalari tomonidan amalga oshirilgan.

Buning mantiqiy davomi sifatida korxonalar qoshida o'quv markazlari ochilib, ularda xodimlar qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida o'qishi yo'lga qo'yildi.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro sherikchiligi kadrlarning nazariy va amaliy tomondan innovatsion qobiliyati shakllanishiga asos bo'lmoqda. Masalan, Fanlar akademiyasining 65 akademigi 33 ta akademik litsey, 27 ta kasb-hunar kolleji, 29 ta oliy ta'lim muassasasiga birlashtirildi. Endi ustozlar

vakillari hamda olimlar, ilmiy va amaliy xodimlar, doktorantlar va bakalavriat talabalari ishtirok etgan tadbir yakunida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va Toshkent davlat texnika universiteti o'rtasidagi hamkorlik Memorandumi imzolandi. Shuningdek, "2021-2025-yillarda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida "Elektr ta'minoti" sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish" bo'yicha "Yo'l xaritasi" tuzildi va unda belgilangan vazifalar tizimli amalga oshirilmoqda. Bu kabi tadbirlar ishlab chiqarish korxonasi va oliy ta'lim o'rtasidagi hamkorlikning yorqin ifodasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Oxirgi yillarda yurtimizda olib borilayotgan tub islohotlar natijasida ilmfan va innovatsiyalar ustuvor sohaga aylanmoqda. Jumladan, bitta ilmiy loyihani moliyalashtirish hajmi 3,5 barobar ko'payib, mamlakatimizning yetakchi oliy o'quv yurtlari yirik ilmiy-tadqiqot markazlariga aylanib borishi e'tiborga loyiqdir. Endi oliy ta'lim muassasasining vazifasi faqat talabalarni o'qitish emas, balki izchil ilmiy faoliyat olib borishi, yoshlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilishi va yirik loyihalarni amalga oshirishi ham lozim.

Aytaylik, Toshkent davlat texnika universitetida faoliyat ko'rsatayotgan 18 ta ilmiy tadqiqot va innovatsiya markazida professor-o'qituvchilar, tad-



qiqotchilar, yosh olimlar va iqtidorli talabalar iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarini ilmiy-texnik rivojlantirishga xizmat qiladigan ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib bormoqda. Fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro manfaatli hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularni ish bilan ta'minlash jarayonida ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqalarni kuchaytirish maqsadida 7 ta ilmiy-texnik kengash faoliyat yuritaypti. Mazkur universitet tarmoq ishlab chiqarish korxonalari bilan 135 dan ortiq innovatsion korporativ hamkorlik shartnomasi imzolagan.

Birgina 2021-yili universitetda ishlab chiqarish korxonalari buyurtmasi asosida jami 2956,14 million so'mlik 2 ta loyiha, "Qizilqumgeologiya" korxonasi bilan 600 million so'mlik 1 ta loyiha amalga oshirilgan edi. Bu kabi misollar ko'p bo'lmasa-da, jarayonning boshlanishiga imkon yaratilganining o'zi dadil qadamdird.

Xulosa qilar ekanmiz, fan — ta'lim — ishlab chiqarishning klaster shaklida ishlashi iqtisodiyotning haqiqiy lokomotivi bo'lgan injener, texnolog, agronom-mexanizator kabi mutaxassislarining sifat va son jihatidan ko'payishiga, bu esa o'z navbatida, sanoatni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga, ilmfan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etishga xizmat qilishi shubhasiz.



BARKAMOL AVLOD

KELING, ISHTIROK ETING VA
BIZ BILAN YUKSALING!

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Mehnat bozoriga har yili yoshlardan iborat salmoqli ishchi kuchi kirib keladi. Bu, o'z navbatida, navqiron avlodning ta'lim olishi, ishga joylashishi bilan bog'liq masala va muammolarga o'z vaqtida yechim topishni taqozo qiladi.



O'quvchilarda kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida umumta'lim muassasalarida to'garaklar tashkil etish ishlari jadal davom etmoqda. Bunda birinchi galda talab va taklif ko'p bo'lgan axborot-kommunikatsiya tex-

"Barkamol avlod" respublika bolalar maktabi bugungi kunda 21 ta xalqaro va mahalliy idora, tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yg'an. Ular bilan birgalikda forum, konferensiya, davra suhbat, seminar va o'quv-treninglar tashkil etiladi, o'quv dasturi va

Maktablardagi to'garaklar soni, yo'nalishi va qamrovini zamonaviylashtirish va ko'paytirish asosiy vazifalarimiz sirasiga kiradi. "Barkamol avlod" bolalar maktablari mutasaddi xodimlari ayni shu maqsadda mahalla va umumta'lim maktablarida respublika bo'yicha muntazam ravishda targ'ibot-tashviqot ishlarni olib bordi. Buning natijasida 7 ming 203 ta tarmoq to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi, ularga 180 mingga yaqin o'quvchi qamrab olindi.

Hududlarda mahalla fuqarolar yig'ini qoshida "Barkamol avlod" bolalar maktablarining 163 ta tarmoq to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus maktab-internatida 330 ta to'garak tashkil qilinib, ularga 9 ming 32 nafar o'quvchi yoshlar jalb etildi.

— Qizimning suyaklari notekis o'sa boshlagani uchun "Barkamol avlod" bolalar maktabining raqs va gimnastika to'garaklariga berdim, — deydi Minovarov Hasanova. — Hozir uning xatti-harakati, jismlari ijobiy o'zgarishlar yaqqol aks etib turibdi. Yaratilgan shart-sharoitlar uchun rahmat. Axir har qanday ota-onalar farzandining ham aqli, ham jismoniy sog'lom voyaga yetishini istaydi.

Ota-onalar va o'quvchi yoshlarga qulaylik yaratish, ularning "Barkamol avlod" bolalar maktablarida tashkil etilgan to'garaklarga onlayn tarzda a'zo

“BARKAMOL AVLOD” BOLALAR MAKTABLARIDA TASHKIL ETILGAN TO'GARAKLARGA ONLAYN TARZDA A'ZO BO'LISHINI TA'MINLASH HAMDA ZARUR BO'LGAN MA'LUMOTLARNI TEZDA OLISHLARI UCHUN WWW.BABM.UZ MAKTAB RASMIY VEB-SAYTI ISHGA TUSHIRILDI VA TELEGRAM RASMIY SAHIFASIDA @BARKAMOLAVLOD_BOT FAOLIYATI YO'LGA QO'YILDI.

qo'llanmalar ishlab chiqiladi, to'garaklarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

— Asosiy maqsadimiz joylardagi "Barkamol avlod" maktablari yo'nalishlarini zamonaviylashtirish, o'sha joyning talab, taklif va ehtiyojidan kelib chiqqan holda yangi to'garaklar tashkil etish,

bo'lishini ta'minlash hamda zarur bo'lgan ma'lumotlarni tezda olishlari uchun www.babm.uz maktab rasmiy veb-sayti ishga tushirildi va telegram rasmiy sahifasida @barkamolavlod_bot faoliyati yo'lga qo'yildi.

Xalqaro hamkorlik yo'nalishidagi aloqalar ham rivojlanmoqda. Jumladan, Janubiy koreyalik mutaxassislar bilan



mashg'ulotlar samaradorligini yanada oshirish, mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar berishdan iborat, — deydi "Barkamol avlod" respublika bolalar maktabi direktorining birinchi o'rinbosari Yo'ldoshxo'ja Akbarov. — Ayni shu maqsadda pedagog xodimlar uchun o'nlab onlayn va oflayn seminar-treninglar tashkil etildi, maktabning rasmiy feysbuk sahifasida o'quvchi yoshlar uchun onlayn mashg'ulotlar o'tkazildi. Ularga 20 ming nafar pedagog xodim va o'quvchi jalb etildi.

Qobiliyatsiz bola bo'lmaydi, faqat uning qiziqish va intilishini bilish, shunga muvofiq to'g'ri yo'naltirish, iqtidorini kashf etish va rag'batlantirish lozim. Ayni shu maqsadda maktablar tomonidan to'garak a'zolari uchun yil davomida 20 ta ko'rik-tanlov tashkil etildi.

hamkorlikda "Barkamol avlod" bolalar maktablarida AKT yo'nalishidagi mutaxassislar malakasini oshirish, ularda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida joylarda o'ndan ziyod o'quv-seminarlari tashkil etildi, 354 nafar xodim malaka oshirdi. Buning natijasida zamonaviy turdagi dasturlash to'garaklarini tashkil etish imkoniyati paydo bo'ldi.

"Barkamol avlod" bolalar maktabining shu kabi intiluvchan o'quvchi yoshlar qamrovini oshirish, ularga qo'shimcha motivatsiya berish, aniq soha — kasbga yo'naltirishning yangi imkoniyatlarini topish va amaliyotga tatbiq etish asosiy maqsadlardan biriga aylangan.

Tamanno TO'RAYEVA,
jurnalist

YANGI NASHR



Luqmon BO'RIXON,
yozuvchi

Taniqli yozuvchi, dramaturg G'afur Shermuhammad qalamiga mansub, yaqindagi-na "Adabiyot" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Mardi maydon" kitobidan joy olgan asarlar leytmotivini, menimcha, xuddi shunday g'oyalar tashkil etadi. Chunki to'plamdagi qissalarning, hikoyalarning qahramonlari — dala-dasht farzandlari, andak to'pori, andak qiziqqon, andak beandisha, shu barobarida, yuraklarida or-nomus, tantilik, diyonat mavj urib turgan odamlar. Ularning aksariyati besh-olti ovulidan nariga o'tib ko'r-magan, lekin ko'ngillari dunyo qadar keng. Albatta, muallif o'z qahramonlarini oppoq yoxud qop-qora ranglarda jo'ngina tasvirlab qo'ymaydi, aksincha, ularning fe'l-atvori-yu, his-tuyg'ularini, hayotiy tutumlarini butun murakkabligicha qog'ozga to'kadi, shu bois, asarlardagi barcha personajlar jonli, tirik odam sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. Go'yo ular bizga ko'pdan beri tanishday, qaylardadir uchrashib suhbatlashganday taassurot tug'diradi. Boshqacha ta'riflaganda, katta-yu kichik personajlarning hammasi yuragimizga yaqin, qadrdon.

Masalan, "Barakasini bersin" qissasidagi Qulmurod va Haydar obrazlari. Avval boshida ular odamgarchilik siyog'i yo'q, quv-ayyor qahramonlar sifatida taassurot uyg'otadi, mutolaa jarayonida esa ularning ham imoni but, bironing haqidan qo'r-qadigan, diyonatli odamlar ekaniga guvoh bo'lamiz. "Quduq'dagi Erat cho'pon haqida ham shunday fikr aytish mumkin. Uning Lallayni chuqurga qamab qo'yishi, shafqatsizligi o'quvchiga avvaliga malol keladi, ichimizda nafrat paydo qiladi, keyinroq u ham mardlik-tantilik xislatlaridan bexabar emasligini bilib, ko'nglimizdan iliq kechin-malar o'tadi. Ushbu obraz haqida chuqur-roq mulohaza yuritishga undaydi. Erat — ahd-u paymonni, lafzni g'oyat qadrlaydigan odam. Lallayning tayinlangan kuni kelolmay qolishiga biror uzrli sabab bordir, deb o'ylab ko'rishni ham istamaydi. Inson

Qissalardagi Qadrdon iyo'falar

Mardlik, diyonat, halollik, sadoqat, or-nomus kabi fazilatlarining muayyan makon-manzili yo'q. Shuningdek, bunday fazilatlariga erishish uchun inson madaniyat-ma'rifat markazlarida yashashi, turli o'quv dargohlari tuprog'ini yalagan bo'lishi ham shart emas. Olis-ovloq go'shalarda, oddiygina umrguzaronlik qila turib ham inson o'z e'tiqodi, imoni tufayli qadr-qimmat topa oladi.

har qanday sharoitda ham o'z va'dasi ustidan chiqishi shart, deb hisoblaydi. Tag'in e'tiborli jihat shuki, bunday tutum-talabga o'zi ham qat'iy amal qiladi. Jahl ustida Lallayga quduqdan suv chiqmagunicha, sen ham chuqurdan chiqmaysan, deb yubordi va uni qamab qo'ydi. Qarangki, Lallaydagi mardlik, odamgarchilik fazilatlaridan qattiq ta'sirlangan bo'lsa ham uni chuqurdan tortib olmaydi, chunki hali suvdan darak yo'q, demak hali qasamni buzib bo'lmaydi. E, kimsasiz cho'lda yashasam, qasamimga hech kim guvoh emas, xohlasam, qat'iy turaman, xohlasam, buzaman, qabilidagi o'y xayolining ko'chasiga ham kelmaydi. Eratning aynan shu qaysarligi, so'zida sobitligi ham o'quvchida zavq uyg'otadi, qasamlarning qadr-qimmatini siyqalangan, va'da berib bajarmaslik oddiy holga aylangan bugungi kunda mazkur obraz noyob bir gavhardek yargirab ko'rinadi.

"Mardi maydon"dagi To'labyo obrazi ham murakkabligi bilan o'quvchi e'tiborini tortadi. Asar boshida biz uni ko'pkarilarda g'irromlikka, nayrangbozlikka qo'l urayotgan chavandoz sifatida ko'ramiz. Albatta, ko'nglimizda nafrat, norizolik uchqunlay boshlaydi. Ammo mutolaa davomida bu qahramonning ham o'ziga yarasha dardi borligiga, behuda qing'ir yo'lga kirmaganiga guvoh bo'lamiz. To'labyo mol-mattohdan ham ko'ra, or-nomusni, qasos lazzatini ustun qo'yishini anglaymiz. Fikrimizning tasdig'i sifatida quyidagi lavhaga e'tibor qaratishni lozim ko'ramiz:

"Ikki suvoriy ularning oldiga sovringa olingan bir suruv qo'y-echkini haydb keldi.

— Ana, mollaringni bittalab sanab ol — dedi To'labyo yonida turgan to'y egasiga.

— Ie...Nima deypasiz? — dedi u hayratlanib. — Sovrinlar sizniki...

— Menga bu elning sovrini harom!"

Qissada To'labyoning kekxa, ustoz chavandoz Sattor polvonga munosabatida ham uning jo'mardligi, ko'pkari udumlariga sadoqati, tiniq qalbi yaqqol ko'rinadi. O'zbek polvonining dangalligidan, g'ururidan zavq-shavq tuyamiz. Beixtiyor o'sha dala-dashtga borib, To'labyoyni topib,

qo'llarini siqib qo'ygimiz keladi. Bu obraz ham farzandlarimizni mardona, tanti qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi, deb bemalol aytishimiz mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash o'rinaligi, G'afur Shermuhammadning "Mardi maydon" to'plamidan joy olgan qissalarning, hikoyalarning barchasi



milliy koloritga boy, har satrida sodda va qaysar dasht odamlari nafasi ufurib turadi, yuragimizga sog'inchi, xayrixohlik, shafqat singari sohir tuyg'ular sizib kiradi. "Barakasini bersin", "Tengiz", "Ta'ziyadagi to'y", "Mardi maydon" — qay birini mutolaa qilmaylik, muallifning oddiy odamlar hayotini yaxshi bilishini, ularning dardini yurakdan his etishini, el bilan hamisha hamdard, ham-nafas ekanini anglaymiz. Alhol, asarlarning badiiy yetukligiga, tasvirlarning tiniq va jonli chiqishiga xuddi shu jihatlari ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ajabmas.

Modomiki, so'z milliylik, originallik, badiiy jozibadorlik haqida borarkan, bu borada to'plamdagi "Quduq" qissasi yaqqol ajralib turadi. Asar qahramoni Lallay, atqoli adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev ta'kidlaganidek, tishidan tirnog'igacha haqiqiy o'zbek. O'zbekning turli rakurslardan olib ko'rsatilgan yorqin timsoli. Qissaga olis mustabid tuzum davridagi voqealar asos qilib olingan bo'lsa-da, lekin u bugun ham

yuragimizga yaqin. Chunki unda o'zbekning hayot tarzi, fe'l-atvori, xislatu illatlari, dardu hasrati, orzu-armonlari ulkan samimiyat bilan tasvirlangan. Bu qissa bosh-adoq timsollar tizimiga qurilgan, deya bemalol ta'riflashimiz mumkin. Avvalo, bosh qahramon soddaligi, ishonuvchanligi, sadoqati, mehnatsevarligi, halolligi, matonati, bardoshi bilan o'zbek xalqining chinakam timsolidir.

Quduq nima? Bu o'zbekning sabr kosasi. Balki Lallay kovlagan quduq biror kun suvga to'lib-toshar, ammo o'zbekning sabr kosasi jabru jafolardan, sitamlardan hech qachon to'lib-toshmaydi, aksincha,



aynan o'shanday shirin suvli quduq kovlanishi bilan yakun topyapti. Ya'ni asar avvalidagi tugun yechilyapti.

G'afur Shermuhammadning mazkur to'plamidan joy olgan "Ta'ziyadagi to'y" qissasi ham o'ziga xos. Muallif kichik bir asarga hayotimizda bot-bot uchraydigan, dillarni g'ashlaydigan katta muammolarni mahorat bilan joylay olgan. Jumladan, bugungi kunda nafaqat katta shaharlarda, balki olis ovullarda ham noma'qul an'anaga aylanib ulgurgan bid'at-xurofotlarni ayovsiz fosh etadi. Asar tesha tegmagan iboralariga, nozik qochirilmalarga boy. Quyidagi misol fikrimizni yana bir karra tasdiqlaydi, deb o'ylaymiz:

— Men tarqata qolay! — Norcha beixtiyor pulga qo'l cho'zdi.

— Siz hisobdan qadshib ketasiz."

Ta'kidlaganimizdek, qissa garchand mu-toyiba, yumor, kulgi bilan bitilgan bo'lsa-da, mutolaadan so'ng o'quvchi beixtiyor ma'yus tortib qoladi, ezgin o'ylar iskanjasiga tushadi. Shu o'rinda yana bir istihola: to'plamdagi asarlarga "Kinoqissa", "Satirik qissa" qabilida izohlar berilgan. Menimcha, bunga hojat yo'q. Qolaversa, mutolaa davomida o'quvchining o'zi asar qay bir janrga mansubligini bilib olgani ma'qul.

Ayolning matonatin, tadbirkorligini, sadoqatini, sobit irodasini tarannum etuvchi "Tengiz" qissasi to'plamga alohida ko'rk berib turibdi, deiyshimiz mumkin. Asarda davr nafasi seziladi. Bugungi kunda mam-lakatda kechayotgan tub islohotlar, ijobiy o'zgarishlar samimiyat bilan ifoda etilgan. Qissada bir qator zamondosh, qadrdon qahramonlar qiyofasini uchratamiz. Ularga qo'shilib quvonamiz, ular bilan ertangi kun uchun tashvish chekamiz. Yuragimizga, ruhiyatimizga ko'tarinkilik, shijoat sizib kiradi. Shuningdek, "Tengiz" qoraqalpog' va o'zbek xalqlari o'rtaqidagi qardoshlik, do'stlik, ahillik yanada mustahkam, yanada

TA'TIL

Yoz — maktab o'quvchilari uchun eng zavqli va maroqli fasl. Albatta, har bir ota-ona yozgi ta'tilda farzandini yaxshi sharoitga ega dam olish maskanlariga joylashtirish harakatida bo'ladi. Boisi, ta'tilda miriqib dam olgan bola yangi o'quv yilini yuqori kayfiyatda, o'zgacha ishtiyoq bilan boshlaydi.

Ayni paytda yurtimizdagi barcha bolalar oromgohlari gavjum. Navoiy viloyatida ham bugungi kunda xuddi shunday 18 ta maskan faoliyat yuritib, ularning 11 tasi stasionar, 5 tasi kunduzgi, 2 tasi mehnat va dam olish oromgohlaridir. Ushbu maskanlarda yoz bo'yi 15 440 nafar bolalar maroqli dam olishi rejalashtirilgan.

"Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatiga qarashli "Oftobjon" bolalar yozgi dam olish oromgohi 17 gektar maydonga ega bo'lib, o'zining xushmanzara tabiati bilan ajralib turadi. Oromgohda bolalarning yozgi ta'tilini maroqli o'tkazishlari uchun puxta tayyorgarlik ko'rilgan. Maskan bir oraliqda 320, mavsum davomida 1300 ga yaqin bolani qabul qilish imkoniyatiga ega. Muhimi, manzilda dam oluvchilarni sog'lomlashtirish uchun barcha chora-tadbirlar ko'rilgan.

ENG ZAVQLI DARGOH bolalarning ham ma'nan, ham jismonan sog'lom bo'lishida muhim o'rin tutadi

— Oromgohimizda "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati ishchi-xodimlarining farzandlari yo'llanma asosida hordiq oladi. Bu yerda 41 pedagog faoliyat olib boryapti. Ular tarbiyachi, yetakchi, to'garak rahbari va sport yo'riqchilaridan iborat. Dam oluvchilar qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, 14 yo'nalishdagi to'garaklarga jalb etilmoqda. Shuningdek, bu yilgi mavsumdan oromgohimizda kompyuter xonasi ham tashkil etildi. Bu esa axborot texnologiyalari va dasturlashga qiziqadigan yoshlar uchun qo'shimcha imkoniyat yaratdi, — deydi oromgoh direktori Dilbar Umarova.

Oromgohda bolalarning vaqtini mazmunli tashkil etish uchun maxsus dastur ishlab chiqilgan. Zamonaviy, shinam yotoqxona, bolalar basseyni va mavjud to'garaklar bolalarga haqiqiy zavq bag'ishlaydi. Shuningdek, maxsus taom-nomalar asosida tayyorlanayotgan besh mahal mazali ovqat, bolalar aqliy salohiyatini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan



trening mashg'ulotlar hamda ingliz tili o'quv kursi, milliy va zamonaviy raqs, mohir qo'llar to'garaklari ham oromgohning kichik mehmonlariga manzur bo'lyapti.

Ayniqsa, mohir qo'llar to'garagi qizlarga hunarli bo'lishlariga yaqindan yordam berib, ularning bo'sh vaqti yanada samarali va mazmunli o'tishiga xizmat qilmoqda. Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshga qo'syoslanadi. Albatta, yoshlarimiz ham yaqindan unumli foydalanib, hunar egallashga harakat qilayotgani har qancha tahsinga loyiq. Ahamiyatlisi, har bir to'garak yoshlarning bilim va salohiyatini oshirishga, tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan.

Maxsus dasturdan o'rin olgan rassomlik to'garagi ham yoshlarning tasviriy san'atga qiziqishi va mahoratini oshirishga xizmat qilmoqda. Eng asosiysi, mashg'ulotlar orqali kimdir hunar, yana biri chech tillarini o'rganyapti va yana qaysidir bolajon sport to'garagida mashg'ulotlar bilan band.

bardavom bo'lishiga ulkan hissa qo'shishiga ishonamiz. Ammo ayrim o'rinlarda qis-saning asl nasli film uchun senariy bo'lgani sezilib qolgan. Bu talabchan o'quvchilarni ranjitmay qolmaydi, albatta. Bu borada muallif keyingi nashrlarda yanada jiddiyroq yondashadi, degan umiddamiz.

Har qanday qalamkashning iqtidorini, salohiyatini baholashda uning so'z qo'llashiga, matn ustida ishlashiga, xalq tilini nechog'liq bilishiga e'tibor qaratamiz. "Mardi maydon"ni shu nuqtayi nazardan kuzatsak, G'afur Shermuhammadning iste'dodiga, tajribasiga yana bir karra guvoh bo'lamiz. Yozuvchining satrlari pishiq-puxta bo'lishidan tashqari badiiy bo'yloqlarga boy, tasvirlari tiniq va ta'sirchan. U nozik chizma bilan o'quvchi ko'z oldida jonli manzara yaratish barobarida badiiy zavq ulashadi. Jumladan, "Yomg'irdan bebahra qolgan lalmi maysa kabi qoshlar...", "Yuragi cho'g'i o'chgan tandirdek sovub qolgan...", "Qibla qizarib, go'yo olamga o't o'rlagan-u, uning ichi-tashi ham o'sha olovga tutashib ketgandek edi..." singari quyima, asar mohiyatini to'larog' ifodalovchi satrlar ko'plab uchraydi. Shuningdek, to'plam tasavvuri-mizni boyitadigan, badiiy lazzat beradigan naqlarga, maqollarga boy.

"Sakson — yakson..."

"Tentakni qochgan tomoniga quv..."

"To'yning ko'rk o'rtakash bilan, ta'ziya ko'rk hassakash bilan..."

Albatta, yuqoridagi kabi nimtabassum uyg'otadigan, serishora, sermazmun iboralarni ko'plab keltirish mumkin. Ularning barchasi muallifning xalq jonli tilini yaxshi bilishidan, doimo izlanuvchan ijodkorligidan darak beradi.

"Mardi maydon"dan o'rin olgan qissalar o'z vaqtida davriy nashrlarda ham e'lon qilingan. Jumladan, "Barakasini bersin", "Ta'ziyadagi to'y" o'n yilcha avval adabiy jamoatchilik sevib kuzatib boradigan "Yoshlik" jurnali sahifalarida yoritilgan edi. Ammo muallif ularni yana qayta ishlab, turli ta'sirchan lavhalar qo'shib, ifodasini tarashlab, kitobxonlar hukmiga havola etibdi. Bu ham bo'lsa, adibning o'z-o'ziga talabchanligini, adabiyotga, badiiy so'zga ixlosi, ehtiromi baland ijodkor ekanini anglatadi. Bu xislatlar qaysidir ma'noda andak hovliqma yosh qalamkashlarga ibrat, namuna deya ta'riflashimiz mumkin.

G'afur Shermuhammadning mazkur to'plamiga kiritilgan asarlarning deyarli barchasi asosida filmlar yaratilgan. Ular xalqimizning, mutaxassislarining haqli e'tiroflariga sazovor bo'ldi. Aslini olganda, kino ustalari, rejissyorlar har qanday badiiy asarga ham e'tibor qaratavermaydi. Ular jonli, yorqin, xalqchil obrazlar izlashadi. Bunday qahramonlarni yaratish, albatta, ijodkorning mahoratiga, tajribasiga, voqealarni xuddi kinotasvirda ifodalay bilishiga bog'liq. Yuqorida qayd etganimizdek, G'afur Shermuhammad ana shunday iqtidor, sezgi, tasavvur sobihi ekanini uning bitiklaridan yaqqol ko'rinib turibdi. Adb nafaqat hamisha talabchan, hamisha chanoq kitobxonlarni, balki kinofilmlarga ishtiyuqmand qavmni ham mamnun eta bildi. Barcha san'at turlarining zamirida badiiy so'z, badiiy adabiyot yotishini keng jamoatchilikka yana bir karra eslatdi.

Xulosa tarzida aytganda, "Mardi maydon"dagi ulog' yana G'afur Shermuhammad keldi. Haloli bo'lsin!

— Viloyatimizdagi oromgohlarda faoliyat yuritayotgan har bir xodim mavsum avvalida maxsus kurslarda ishtirok etdi va jarayonda ularga faoliyati yuzasidan zarur ma'lumot va tavsiyalar berildi. Hozirda dastlabki oraliqlar yakunlandi va mavsumga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rilgani o'z samarasini ko'rsatdi, — deydi Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirishini tashkil etish departamenti Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Tohir Abdurahmonov.

Shuningdek, oromgohlarda bolalar xavfsizligini ta'minlash va turli noxush holatlarning oldini olish bo'yicha ham barcha chora-tadbirlar ko'rilgan. Jumladan, favqu-lodda vaziyatlar va ichki ishlar boshqarmalarining sohaviy xizmat xodimlari birtiriklib, tunu kun navbatchilik qilmoqda. Bundan tashqari, oromgohlarga birtirikilgan xodimlar tomonidan ko'rgazmali targ'ibot materiallari hamda maxsus texnikalar yordamida bolalar bilan turli uchrashuvlar, tushuntirish ishlari, viktorinalar, ko'rik-tanlovlar va davra suhbatlari o'tkazilmoqda.

Kelajagimiz egalari doimo e'tiborda. Ularning ham ma'nan, ham jismonan sog'lom bo'lishi jamiyatning ertangi taraqqiyoti-da muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda olib borilayotgan zarur chora-tadbirlar bolalar yozgi oromgohlarida yaratilgan sharoitlar misolida yana bir bor amalda o'z ifodasini topmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-746.
44212 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqop. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo'minova
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15